

Yaqinda Chexiyaning Praga shahrida bo'lib o'tgan «Praganing mo'jizaviy yulduzlari» VI an'anaviy xalqaro bolalar ijodiyoti ko'rik-tanlovida yurtimiz yoshlari munosib ishtirok etishdi. O'ttizdan ortiq davlatdan o'quvchi-yoshlar qatnashgan ushbu tanlovda Chirchiq shahridagi 7-bolalar musiqa va san'at maktabining 2-sinf o'quvchisi Temur Mirahmedov fortepyano ijrochiligi bo'yicha bosh mukofotga sazovor bo'ldi. Shuningdek, mazkur maktab o'quvchilari - Sevinch Mirg'ulomova, Asadbek Madiyorov, Eleonora Abdurahmonova, Yelena Gurchina, Rauan Safaraliyev bolalar liboslari namoyishi, xalq amaliy san'ati, fleyta ijrochiligi, xoreografiya kabi yo'nalishlarda birinchi o'ranga loyiq topildi.

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:15 (66972)

2014-yil

14-aprel

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

USTOZLARNING QUSLUQ' MINBARI



«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi - 2014»
Respublika ko'rik-tanlovi
g'oliblari aniqlandi.

Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi! Bu nomga sazovor bo'lish uchun bugungi kun muallimidan yuksak bilim, tajriba, mahorat va malakadan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan umumli foydalana olish, doimo yangilikka intilib yashash talab etiladi. Aslida bugun respublikamizdagi barcha maktablarda ana shunday o'z kasbining mohir va jonkuyar fidoyilari mehnat qilishmoqda.

Mana, bir necha yildirki, yurtimizda o'tkazilayotgan «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovi ushbu kasb egalari orasidan eng ilg'orlarini saralab olish imkonini bermoqda.

Respublika ko'rik-tanlovining bu yilgi shartlari anchagina murakkab bo'lib, ishtirokchilar har bir shart bo'yicha o'z bilim va malakalarini ishga soldilar. Ayniqsa, ingliz va fransuz tili fani o'qituvchilarining interfaol va yangi pedagogik tajribalari alohida sinovdan o'tkazildi.

Nihoyat, yurtimiz kelajagi bo'lgan siz yoshlarga zamonaviy va yangi metodlar bilan ta'lim-tarbiya berishga intilayotgan ustozlarni munosib taqdirlash va rag'batlantirish payti yetib keldi.

(Davomi 2-betda)

Ushbu sonda:

OTASINI
QUVONTIRGAN
BOLA

3-bet



5-bet

HAKKA
XOLA NIMA
DEYDI?

6-bet

(Boshli 1-betida)

USTOZLARNING QUTLUG' MINBARI



G'oliblar e'lon qilinadigan daqiqalarda Namangan shahridagi 6-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi Gulshan opa Mahmudovani ham hayajon bosdi. O'quvchilari mehrini qozonib, ularga ingliz tilidan saboq berib kelayotgan muallimaning ham o'ziga xos tajribasi, dars o'tish uslubi bor. Yakunda bu muallim tanlovning ingliz tili fani yo'nalishida 1-o'ringa loyiq ko'rildi.

– Joriy yilgi tanlovga «Ta'lim sifatini oshirishda amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlarim» nomli yangi kiritilgan shartda bor tajriba va bilimimni ishga solishimga to'g'ri keldi. Bunda, ayniqsa, 2012–2013-o'quv yilida AQSHda malaka oshirib qaytganim, shu yili Tailanda bo'lib o'tgan xorijiy tillar o'qituvchilarining o'quv-seminarida ishtirok etganim qo'l keldi, – deydi ustoz hayajon bilan.

Muallimaning yutuqlarini o'qib, «Bilim va intiluvchanlik muvaffaqiyatlar sari chorlashi rost ekan-da», deb o'ylayotgan bo'lsangiz, biz sizni yana bir g'olib ustoz bilan tanishtiramiz.

Jismoniy tarbiya fani bo'yicha «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» deya e'tirof etilgan Jahongir aka Jinaliyev poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 48-umumta'lim maktabi o'qituvchisi. Ustozining g'olib bo'lgani to'g'risidagi xabarni eshitib, shogirdlari qanchalik quvonishganini bir ko'z oldingizga keltiring. Axir maktabda jismoniy tarbiya fanini va bu murabbiyni yaxshi ko'rmaydigan o'quvchining o'zi yo'q-da!

Suhbat davomida ushbu umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi Samad Ahadov ustoz haqida so'zlash istagini bildirdi:

– Men daraslardan so'ng voleybol to'garagiga qatnashaman. Shu kunga-



Z. NISHONOVA o'zigan surat

cha shahar miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etib, murabbiyimiz ishonchini oqladik. Kelajakda ustozim kabi o'z kasbining fidoyisi bo'lishni, sport bilan muntazam shug'ullanishni istayman.

Sayyora QODIROVA

QIZLAR BELLASHUVI

Yurtimizda bahor nafasi kezb yurgan ayni shu kunlarda respublikamiz maktablarida iqtidorli qizlar o'rtasida ko'plab ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri bizning maktabimizda ham bo'lib o'tdi.

Kichik yoshdagi sinflar o'rtasida «Jajji malika», yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida «Orasta qizlar», «Nafosat» ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Ishtirokchilar «Sog'lom bola yili»ga sahna ko'rinishi, pazandalik, erkin mavzular bo'yicha o'z mahoratlarini namoyish qildilar.

Hay'at a'zolari qizlarning barcha shartlar bo'yicha chiqishlarini baholab bordilar.

Bayram so'nggida maktabimiz direktori Sh. Davronov g'oliblarni esdalik sovg'alari bilan taqdirladi.

Sano JONQULOVA,
Qashqadaryo viloyati, Muborak tumanidagi
5-umumta'lim maktabi o'qituvchisi



18-aprel – Xalqaro
yodgorliklarni va tarixiy
joylarni asrash kuni


MOZIYDAN SO'Z OCHGAN BINOLAR

Aziz o'quvchilar, diyorimizda ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan tarixiy obidalar, yodgorliklar juda ko'p. Ular davlatimiz tomonidan nomoddiy-madaniy meros sifatida asrab-avaylanadi, hatto ayrimlari YUNESKO-niing «Dunyodagi nodir me'moriy inshootlar» kitobiga kiritilgan.

18-aprel – Xalqaro yodgorliklarni va tarixiy joylarni asrash kuni munosabati bilan quyida sizlarga yurtimizdagi tarixiy obidalarning ayrimlari haqida so'zlab bermoqchimiz:

POLVONQORI YODGORLIGI

Mazkur yodgorlik Xorazm viloyatining Xiva shahrida joylashgan. Ushbu obidani xivalik savdogar Polvonqori qurdirgan bo'lib, u shaharning janubi-sharqiy qismida joylashgan. Madrasa bosh tarzi shimolga qaragan bo'lib, uning burchak qismlariga guldastalar ishlangan. Bosh tarzida gumbazli miyonсарoy bor. Miyonсарoy orqali hovliga o'tiladi. Madrasa oldida alohida minora qad ko'targan bo'lib, uning yuqori qismi qubba shaklida yakunlangan. U rangli g'ishtlar bilan bezatilgan.



MILLATIMIZ FAXRI

Ulug'bek madrasasi dunyo ahliga ma'lum va mashhur temuriy-zoda Mirzo Ulug'bek tomonidan Samarqandda 1417–1422-yillar mobaynida qurilgan. Registon ansamblining g'arbida joylashgan, 2 qavatli, to'g'ri to'rtburchak tarhli ushbu obidaning bosh tarzi maydonga qaragan, mahobatli peshtoq mujassamotida balandligi 16,5 metrga teng keng toqili ravoqi bor, uning yoni guldastalar bilan bezatilgan. Ravoq tepasida yulduzli osmon aks etgan qanos bezaklar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Guldasta tepasi muqamas, sharafalar bilan yakunlangan. Ganch bilan ishlangan panjaralaridan ichkariga yorug'lik tushib turadi. Mustaqillikdan so'ng ushbu obida qayta rekonstruksiya qilingan. Ulug'bek madrasasi me'moriy shakli, tuzilishi jihatidan Markaziy Osiyo me'morchiligida shu turdagi binolar orasida eng mukammal yuksak san'at namunasi hisoblanadi.

Hurmatli o'quvchilar, qadimda ajdodlarimizning mashaqqatli mehnati evaziga bunyod etilgan me'moriy obidalarning ayrimlari bilan tanishdingiz. Ular millatimiz faxriga aylangan. Agar sizlarda ularni tomosha qilish ishtiyoqi tug'ilgan bo'lsa, albatta, ajdodlarimizning o'tmishi, tarixi yashiringan bu yodgorliklarni ziyorat qilishga boring.

Ozoda TURSUNBOYEVA

YANGI KITOB TAQDIMOTI

Oltiariq tumanidagi 30-umumta'lim maktabi axborot-resurs markazi xodimlari tashabbusi bilan O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev qalamiga mansub «Quyonglar saltanati» asarining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Tadbirida maktab direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha



o'rinbosari Shoira Soliyeva, maktab axborot-resurs markazi xodimi Risolatxon Oripova va 8-sinfning faol kitobxon o'quvchilari yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyati, bolalarga atalgan asarlari haqida so'z yuritishdi.

Tadbirda so'ngida o'quvchilar sevimli yozuvchimiz asarlari asosida sahna ko'rinishlari namoyish etdilar.

Muhammadjon MAHMUDOV, Farg'ona viloyati

MAKTABIMIZ 100 YOSHDA



O'tgan bir asr davomida bilim dargohimizni minglab o'quvchilar tamomlab, bugun ularning ko'pchiligi turli sohalarida samarali faoliyat yuritib kelishmoqda. Hozirda ta'lim maskanimizda 1300 nafardan ziyod o'quvchiga 150 nafar o'qituvchilar bilim bermoqda. Maktabimizdagi sinfxonalarning barchasi zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan. O'quv laboratoriya, kompyuter xonalari hamda sport zali bizning ixtiyorimizda. O'quvchilarning aksariyati «Tong yulduzi» gazetasini o'qiydi. Bir so'z bilan aytganda, ilm dargohimiz bilan chin ma'noda faxrlanamiz.

Anvarjon ABDULLAYEV,

Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

OTASINI QUVONTIRGAN

Nozimjonning yaxshi bir odati bor. Maktabdan qaytgach, tushlik qilib olib, birinchi galdga uyga berilgan vazifalarni bajarishga kirishadi. Darslarini tugatgach, onasidan ruxsat so'rab, o'rtoqlari bilan biroz o'ynab keladi. Bugun ham shunday bo'ldi. Uy vazifalarini bajargach hovliga chiqmoqchi bo'lib turganida, onasi kirib keldi.

– Darslaringni qilib bo'ldingmi, bolam? Ertaga xolanglar mehmonga kelisharkan, bozorga borasanmi degandim?

– Ha, boraman, oyi, – dedi Nozimjon oldidagi kitob-daftarlarini taxlab bir chetga olib qo'yarkan.

Nozimjon pishiqqina bola. Otasi bilan ko'pincha bozorga birga tushib o'rganib qolgan. Narsaning yaxshisini tanlashni biladi. Shu bois, onasini bozorning ro'parasida turgan katta do'konga boshladi. Ular bir zumda barcha kerakli narsalarni xarid qilishdi. Nazorat kassaga borib, olgan mahsulotlarining pulini to'ladi. Onasi dastyor o'g'lidan xursand bo'lib, endi chiqish tomon yurganida, Nozimjonning ovozidan hayron bo'lib ortiga o'girildi.



– Xola, to'lovni amalga oshirganingiz haqidagi to'lov qog'ozi bermadingiz-ku? Sotuvchi ayol mushtdek bolaning gapidan hayron bo'lib qoldi va zarda bilan oldidagi kassa apparatini chetga surdi.

– Nimaga o'zingdan kattalarga aql o'rgatasan?

Qarag'ayda nechta «olma» bor?

(Sinfdoshlar hangomasi)
Tanaffus bo'lishi bilan doska yoniga chiqib olgan Shokirjon maqtana ketdi:

– Men sinfdagi eng a'lochi o'quvchiman. Hisoblash va o'ylashda barchangizdan aqlliman. Kelajakda matematik bo'lib ketsam, ajabmas!

Shokirjonning maqtanchog'ligidan biroz ranjigan Durdona unga qarata:

– Men bergan antiqa savollarga javob topishing dargumon. Uni hisoblab emas, o'ylab topiladi, – dedi.

– Aytaver savolingni, men, albatta, topaman.

– Mayli, bo'lmasa, diqqat bilan eshit: anhor bo'yida uch tup qarag'ay o'sadi. Ularning har birida uchtadan shoxi bor, har bir yo'g'on shoxida beshadan novda bor. Har bir novdada yetti donadan olma bor bo'lsa, hammasi bo'lib nechta dona olma bo'ladi?

Shokirjon uzoq o'ylanib, «315 ta», deya javob berdi.

Uning antiqa javobidan keyin sinfda kulgi ko'tarildi.

– Bitta ham olma yo'q. Qarag'ayda olma pishmaydi, hurmatli matematik, – dedi Durdona jilmayib!

Jannatxon O'RMONJONOVA, Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi 19-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi



Huquqingizni bilasizmi?

bilan tugashiga qiziq boshladilar. Sotuvchi ayol shosha-pisha to'lov qog'ozi yozib, jahl bilan Nozimjonga uzatdi.

– Ma, ol.

Nozimjon indamaygina qo'lga to'lov qog'ozini oldi-da, onasiga ergashdi.

Ikkalasi bekat tomon borishar ekan, onasi ranjigannamo tarzda o'g'lga so'z qotdi.

– Bolam, shu bir parcha qog'oz senga nimaga kerak, kap-katta odamni hammaning oldida izza qilding.

Nozimjon onasining bu gapiga hayron bo'ldi. Keyin bekatdagi o'rindiqqa qo'lidagilarni qo'ydi.

– Oyi, bizning ustozimiz har oy «Huquqingizni bilasizmi?» degan mavzuda davra suhbatini o'tkazadi. Biz unda o'z huquqlarimizdan qanday foydalanayotganimiz haqida gapirib beramiz. Bugungiday har bir kishi to'lov haqidagi qog'ozni talab qilsa, buvularimiz, buvularimiz nafaqalarini o'z vaqtda oladilar-ku.

Kechki ovqat mahali onasi bugungi voqea haqida gap ochganida, otasi ham xursand bo'ldi. Akasi, opasi oldida Nozimjonni bu ishi uchun maqtadi.

Yusuf ABDULLAYEV

ELNING ERKA SHOIRI

Qo'shiq dilga malham, ruhga quvvat, jismga orom baxsh etuvchi san'at asaridir. Chin tuyg'ular ila kuylangan navolarigina yuraklarga nurdek kirib boradi.

Sevimli shoirimiz Muhammad Yusufning hofizlar tiliga tushib, qo'shiq bo'lmagan she'ri yo'q, hisob. Ular yozgan she'rlar kuylar hamohangligida shuurimizga singib, qalbizdan joy topgan. Shoirning xalqona ohang, ohorli tashbehtar, sodda va samimiy uslubda yaratgan ijod namunalari ko'ngil mulkimizga aylangan. Ayniqsa, uning ona, Vatan, do'stlik, tinchlik mavzusidagi yozgan she'rlari bizni eng pokiza tuyg'ular bilan yashashga undaydi. Shuning uchun Muhammad Yusufning ijodini xalqimiz sevib, mutolaa qiladi.

Biz yoshlar ulug' shoirimizning she'rlarini yod olib, undan hayot yo'limizda dasturulamal sifatida foydalansak, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guliniso ISMATULLAYEVA,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi



Maktabning faollar zalida 6-sinf o'quvchisi Hasan Azimjonovning Muhammad Yusuf qiyofasini aks ettirgan surati, sevimli shoirimizning hayot va faoliyatini ifodalovchi stend, albom, bukletlar joy olgan.

Yangiyo'l tumanidagi 57-umumta'lim maktabida shoir tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirga ana shunday qizg'in tayyorgarlik ko'rildi. Dastlab maktabning sobiq o'quvchisi, Respublikada xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi Muhayyo opa To'laganova so'zga chiqib, shoir haqida qiziqarli xotiralarini so'zlab berdilar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Yulduz opa Nazarova tashkillashtirgan tadbirni o'quvchilar she'r va kuy-qo'shiqlar bilan davom ettirishdi. Tadbirga tashrif buyurgan taniqli bolalar shoiri Dilshod Rajab o'quvchilarga o'z kitoblaridan ulashdi. Yangiyo'llik shoir Erkin Akrom va «Yangiyo'l» gazetasi qoshidagi «Orzu» adabiy to'garagi a'zolari ham yig'ilganlarga o'z ijod namunalaridan o'qib berishdi.

Bayram so'nggida maktab o'quvchilaridan Nilufar Saidakbarova, Husan Azimjonov, Madina va Yulduz Magdiyeva, Mahbuba Nusratova, Nodira To'laganova kabi yosh adabiyotsevarlar o'z taassurotlarini so'zlab, ustozlarga tashakkur bildirishdi.

O'z muxbirimiz



ISHONCHNI OQLADIK

Bir kuni tanaffus paytida adabiyot fani o'qituvchimiz Feruza opa meni va dugonam Shahzodani o'z xonasiga chaqirib, shunday dedi:

– Muhammad Yusufning she'rlaridan yod olinglar. Yaqinda shoirning tavallud kuniga bag'ishlangan tadbir o'tqazamiz. Tadbirda tumanimizdagi barcha maktablardan iqtidorli o'quvchilar qatnashishadi, sizlardan umidim katta.

Ustozimizning bizga bildirgan ishonchlaridan xursand bo'lib ketdim. Uyimizdagi kutubxonamdan Muhammad Yusufning «Tanish teraklar», «Bevafo ko'p ekan», «Ulug'imsan, Vatanim» singari she'riy to'plamlarini olib, bir nechta she'rlarini yod oldim. Bundan tashqari, ustozlarimiz Feruza Tolipova, Muborak Omonliqova boshchiligidagi sahna ko'rinishi, raqslar tayyorladik.

Kuni kecha Uchtepa tumanidagi 14-umumta'lim maktabining katta zalida orziqib kutilgan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda men Muhammad Yusufning «Inson» nomli she'rini yoddan aytib berdim. Tayyorlagan sahna ko'rinishimiz esa hakamlar hay'ati tomonidan yuqori baholandi.

Dilbar PRIMOVA,
Uchtepa tumanidagi 296-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf o'quvchisi

TO'LQINJONNING YUTUG'I



ZUHRA olgan surat

TISHI YO'Q-DA

– Shokolad bergan edim,
Nor bilan bo'lishgin, deb.
Ranjitibsan ukangni,
Hammasini o'zing yeb.

– Ukamni-chi, tog'ajon,
Novvot bilan ishi yo'q.
Chunki uning og'zida,
Birorta sog' tishi yo'q.

114-umumta'lim maktabining 5-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Sinf sardori bo'lgan bu tengdoshingiz bir necha yildan buyon suzish bilan shug'ullanib keladi.

– Ustozlarimdan juda minnatdorman. Qo'limga ilk bor qalam tutqazgan ustozim Sayyora Mahamatova, sinf rahbarim Dilfuza opa Hojiyeva mendan o'z yordamlarini ayashmaydi. 3-4-sinfda o'qib yurgan chog'imda ona tili fanidan o'tkazilgan olimpiadada qatnashib, maktab bo'yicha 1-o'rinni olgan bo'lsam, bu yil tuman miqyosida ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdim. Bunday yutuqlarga erishishimda ota-onam qatori ustozlarimning ham mehnati katta, – deydi biz bilan suhbatda To'lqinjon.

Tengdoshingizning kelajakdagi orzulari bir olam. U bolalikdan shifokor bo'lishni orzu qiladi.

Biz To'lqinjonga, istaklaring ijodat bo'lsin, deymiz!

Manzura UBAYDULLAYEVA

MAKTABDA JONLI BURCHAK

Dunyoda gullarni ko'rib zavqlanmaydigan inson topilmasa kerak?! Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 29-umumta'lim maktabida o'tkazilgan «Gullar va qushlar» bayramini kuzatib, bunga yana bir bor amin bo'ldik. Tadbirda 5-8-sinf o'quvchilari o'zlari o'stirayotgan gullari, parvarishlayotgan qushlari-yu ijodiy ishlari bilan qatnashib, jonli burchak tashkil etishdi. Ayniqsa, 8-«V», 6-«V», 7-«V», 7-«G» sinf o'quvchilarining jonli burchaklari barchada katta qiziqish uyg'otdi. Bayramda faol ishtirok etgan o'quvchilarni maktab direktori Zulfiya opa Sodiqova «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari bilan taqdirladi.

Tadbirni tashkillashtirishda o'quv-tarbiya ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Naima opa Abidova va ma'naviy ishlar bo'yicha o'rinbosari Mavluda opa Sultonovaning mehnatlari katta bo'ldi.

Muzaffar AHMEDOV



BAXTI KULGAN DIYORIMSAN,

O'ZBEKISTON!



Yulduz KARIMOVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahridagi
17-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf
o'quvchisi

Sog'lom bolaning tomirida milliy g'urur, yurt ishq jo'sh uradi. Shu bois, o'quvchilar Vatan mavzusidagi tanlovlarga aslo befarq emaslar. Buni «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika an'anaviy tanlovi kelayotgan maktablar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi 2-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi Mehrinigor Alimo-



Quyida tengdoshlaringizdan tanlovga kelgan sara ijodiy ishlari bilan tanishasiz.

O'g'iljon QADAMOVA,
Urganch shahridagi 26-umumta'lim maktabining 4-«D» sinf o'quvchisi



Mahliyo NURULLAYEVA,
Xorazm viloyati, Gur'an tumanidagi
37-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

vaning qalbida Vatanga mehr-muhabbati bo'lmaganida, «Vatanim bu shuhratim, shonim, tomirimda jo'sh urgan qonim», deb yozarmidi. Yoki Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 21-umumta'lim maktabi o'quvchisi Durдона Bahodirova «Qushlar ham Vatan deydi», «Onam kabi mehr ko'rsatdi, baxtimizni tilaydi Vatan», deya o'z yurtidan faxrlanib, bizga maktub yo'llarmidi? Ezgulik bunyodkorlari bo'lmish yosh rassomlar ona tabiatning go'zalligidan ilhomlanib, o'z rasmlarida sog'lom bolaning sog'lom

SURXONIM

Oqayotgan suvlaring zilol,
Quyoshingni nurlari zarhal.
Tunda alla aytdi hilol,
Go'zallikda tengsiz Surxonim.

Shoirilarning she'rlar bitishar,
Baxshilarning terma aytishar.
Chiroyingni ta'rif etishar,
Madhingga so'z o'jiz, Surxonim.

Orzuxol POLVONOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

SPRING

In spring nature awakens from her long winter sleep.

The trees are filled with new life, the earth is warmed by the rays of the sun, and meadows are covered with fresh green grass. The wood and forests are filled with the songs of the birds. The sky is blue and cloudless. At night, millions of stars shine in the darkness.



I like spring.
Because, I have some time to fun!
I am planning more things to celebrate spring holiday. I want to visit my grandmother to the village. I like picking wildflowers and mushrooms.
There are a lot of wildflowers and mushrooms in the forest.

New words

- Mushroom – qo'ziqorin
- Pick – termoq
- Star shine – yulduzlar charaqlamoq
- Nature – tabiat
- To awaken – uyg'onmoq
- Wood – o'rmon
- Wildflowers – yovvoyi gullar
- Darkness – qorong'ilik
- Meadows – maysazor
- Ray – shu'la

Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi

OUR SCHOOL UNIFORM (BIZNING MAKTAB FORMAMIZ)



- shirt
- tie
- blazer
- rucksack
- trousers
- shoes
- ribbon
- blouse
- skirt
- book bag
- knee socks
- loafers

Simple test

We put our books, pens, copy-books in it, this is a
a) ribbon;
b) blazer;
c) book bag.

Only girls wear with blouse is a
a) shirt;
b) skirt;
c) rucksack.

Especially boys wear but girls also use it. What is this?
a) skirt;
b) tie;
c) blouse.

O'zDJTU talabasi
Dinara SHAKIROVA tayyorladi

BAXTIMIZNI KUYLAYMIZ

Mustaqil yurt farzandiman,
Ota-onam dilbandiman.
Boshimizda bor soyabon,
Ona xalqim bo'lsin omon.

Yurtimiz tinch, farovon,
Gulga to'lsin keng jahon.
Yo'limizni yoritib,
Yashnasin O'zbekiston.

Doim bo'lgay madadkor,
Ajdodlarning ruhi yor.
Ezgulikka intilgan,
Xalqimiz bor bunyodkor.

Mustahkam oilamiz,
Ahil, inoq yashaymiz.
Biz o'zbek farzandlari,
Baxtimizni kuylaymiz.



AZIZ MAKTABIM

Sado bergay har gal qo'ng'iroq,
Chog'lanamiz yangi yo'llarga.
Maktabdagi o'tgan kunlarim
Zavq beradi mudom dillarga.

Unutilmas bolalik chog'i,
Ustozlarning o'git, sabog'i.
Yaxshi yo'llar chorlaydi mudom,
Ezgulikning yo'qdir adog'i.

Vatan nomi bilan yashayman,
Ulug' inson bo'lish maqsadim.
Senga ta'zim, senga tashakkur,
Qadrdonim, aziz maktabim.



Sevara UMARALIYEVA,
Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi
45-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

VATAN

O'zbekiston – ulug' diyor,
Havosi xush, suvlari bol.
Ozod elning obod yurti,
Baxt keltirdi hur Istiqlol.

Ona Vatan, mangu yasha,
Jaranglayver ovozimda.
Tinchlik degan buyuk qo'shiq,
Yangrab tursin sho'x sozimd.

BOLALIKDAN SIR AYTSA...

Qo'ng'iroqdek ovozim,
Jaranglatib she'r aytsa.
Yuksak bo'lar parvozi,
She'rlarini zo'r aytsa.

Ular aytdan she'rini
Tog'lar aytsa, qir aytsa.
Baland qo'yib ovozin,
Osmon aytsa, yer aytsa.

Bolalarча beg'ubor,
Jaranglatib she'r aytsa.
Ilhom bo'lar senga yor,
Bolalikdan sir aytsa...



Shavkat DO'STMUHAMMAD,
Toshkent kimyo-texnologiyalari akademik
litseyining 2-bosqich o'quvchisi

IQROR

(Sinfdashim tilidan)

Yozgan edim partaga,
Tashlolmadim o'chirib.
Muallim der: «Bu ishni
Bo'lmas sira kechirib!»

Yozgandim-ku, o'zimumas
Muborakning ismini.
Hatto asrab yuraman,
Yashirincha rasmimi.

Uning uchun chidayman,
Mayli, berishsa dakkii.
Eh, lekin Muborakning,
Xafa bo'lgani chakkii...



Zilola G'AYBULLAYEVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tibbiyot
kollejining 1-bosqich o'quvchisi

KO'KLAM SOG'INCHI

Tog' ustida yaltirab
Qor ko'rinar, qarang, huv.
Qir qo'ynida jildirab,
Oqib kelar tiniq suv.

Qorboboning ko'z yoshi,
Maysa gullar taqibdi.
Ko'klamning ilk quyoshi,
Tog'da gulxan yoqibdi.

Zamin esa uyg'onib,
Dalalarni yashnatar.
Tunlari oy to'lg'onib,
Samo sochmish yerga zar.




Mohiniso BOBOQULOVA,
Samarqand viloyati, Pastdarg'om
tumanidagi 18-umumta'lim maktabining
7-«A» sinf o'quvchisi

HAKKA XOLA NIMA DEYDI?

Bahrom haqida

Turishini qarang, qo'li cho'ntakda, og'zi
qulog'ida. Xuddi birov tekinga xo'rozqand
berayotgandek iljayadi. Undan ko'ra, uyga kirib
«Alifbe»ni titkilasang-chi, ko'chada nima bor
senga.

O'taketgan qizg'anchiq bola shu Bahrom.
Tunov kun qarab tursam, bir qo'lida sumka, bir



qo'lida pashmak, shipilla-
ganicha maktabga ketyapti.
Sumkaga boqib afti bujmaysa,
pashmakka qarab chehrasi
ochiladi, deng.

– Ho', Bahromboy,
– dedim unga, –
qo'lingdagi
narsani ikkiga taq-
simlasak, qalay bo'larkin?

To'g'ri-da, hozirgi bolalar
judayam olg'ir.

Galvars bola bunga tushunar-
midi? Ko'nmedi, ochko'z. Shundan
keyin, mana bo'lmasa, dedim-u,
shartta uning sirini ochib tashladim.
Qanaqa sir, deysizmi? Hali eshitmagan-
misiz? Mayli, aytсам ayta qolay, siz ham
o'zimizdanziz.

Aniq bilamanki, bu yil birinchi sinfga
o'ttizinchi sentabrgacha tug'ilgan
bolalarni qabul qilishdi. Bahrom esa
to'rtinchi oktabrdagi tug'ilgan. Buniyam
aniq bilaman. Shunga qaramay,

Anvar OBIDJON,
O'zbekiston xalq shoiri

to'polonda u ham maktabga ilashib qoldi.
Bilsam-bilmasam, o'qituvchilari uning
hujjatini tuzukroq tekshirib ko'rishmagan.
Bolaning aqli kalta bo'lsayam, bo'yi
qurg'ur balandgina. Ana shu bo'yiga
qarab turib, uni bilmasdan maktabga
opqo'yishgan, deb o'yilayman.

Qisqasi, Bahrom qizg'anchiqning sir-
asrorini bir-ikkitasiga sekin shipshitib
qo'ydim. Dunyoda siz bilan menga
o'xshagan maydagaplar ko'p. Bittasi
bo'lmasa, boshqasi bu sirni oxiri maktab
direktoriga yetkazishi turgan gap. Shundan
keyin, hujjat tekshirish boshlanadi. Bir vaqt
qarabsizki, kelasi yilgacha xayr, deyishib,
Bahromboyini maktabdan o'chirib
yuborishadi. O'shanda bir yayrab ernak
qilamiz-a...

Farosat yo'q-da bolada. Agar farosati
bo'lsa, kelib-kelib Hakka xoladan bir
cho'qim pashmakni ayab o'tirarmidi?

OSIYO CHEMPIONATI BOSHLANDI

Poytaxtimizdagi badiiy gimnastika bo'yicha bolalar o'smirlar respublika ixtisoslashgan olimpiya zaxiralari sport maktabida o'smirlar va qizlar o'rtasida sport gimnastikasi bo'yicha Osiyo chempionati boshlandi.

Xalqaro gimnastika federatsiyasi ko'magida Osiyo gimnastika ittifoqi, O'zbekiston gimnastika federatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tashkil etilgan ushbu yirik musobaqa osiyolik yosh gimnastikachilar uchun joriy yil 16-28-avgust kunlari Xitoyning Nankin shahrida o'smirlar o'rtasida bo'ladigan II Olimpiya o'yinlariga yo'llanma beradigan saralash turniri vazifasini o'taydi. Musobaqada qit'aning 22 mamlakat terma jamoalari g'oliblik uchun bahs olib borayotgani, turnirning qanday nufuzga ega ekanini ko'rsatib turibdi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerak, sport gimnastikasi dunyoda eng ommaviylashib borayotgan sport turlaridan biri bo'lib, u o'zining murakkab elementlari, jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Quvonarlisi, bugun mamlakatimizda ham sport gimnastikasi bilan

shug'ullanayotgan yoshlar soni tobora ortib bormoqda. Bu esa sportchilarimizning xalqaro maydonlardagi ulkan g'alabalariga puxta zamin hozirlamoqda.

Jumladan, jahon chempionati va Olimpiada o'yinlari sovrindori bo'lgan Anton Fokin, Pekin olimpiadasida bronza medalni qo'lga kiritgan trampolinchi Yekaterina Xilko bilan yurtdoshlarimiz haqli ravishda faxrlanishadi. Eng quvonarlisi, bugun ana shu aka-



opalarining izidan borib, sportga mehr qo'yayotgan yoshlarning safi yanada kengayib bormoqda.

Osiyo chempionatining ochilish marosimida so'zga chiqqanlar ham mamlakatimizda bolalar sportiga ko'rsatilayotgan e'tibor o'zining ijobiy samarasini berayotganini ta'kidladilar.

Musobaqada o'g'il bolalar o'nta, qizlar to'qqizta olimpiya yo'llanmasi uchun raqobatlashadi. Belgilangan qoidalarga binoan bir mamlakat vakillariga ko'pi bilan ikkita yo'llanma beriladi.

Osiyo chempionatida yurtimiz sharafini o'n nafar sportchimiz himoya qiladi.

Sport sahifamiz orqali xalqaro musobaqalarda Vatanimiz nomini munosib himoya qilayotgan iqtidorli tengdoshlaringiz haqida o'qib, ular erishayotgan yutuqlarga chin dildan havas qilayotgan bo'lsangiz kerak-a? Unday bo'lsa, sport hayotingizning bir bo'lagiga aylansin, deymiz. Zero, sog'lom turmush tarziga rioya qilish muvaffaqiyatlar garovidir.

Sa'dullo TURSINOV



Maktabimizning 7-«B» sinfida o'qiydigan Sardorbekka barchamiz havas qilamiz. Suratda ko'rib turganingizday, uning shoda-shoda medallari bor.

BO'LAJAK MURABBIY

Ta'lim maskanimizning faxri hisoblangan Sardor Isroilov yetti yildan buyon sportning suzish turi bilan shug'ullanadi. Yosh sportchi suzish bo'yicha respublika miqyosida o'tkazilgan ko'plab musobaqalarda oltin va kumush medallarga sazovor bo'lgan. U kelajakda ustozlari Dadaxon aka Karimov kabi murabbiy bo'lishni orzu qiladi. Bundan tashqari, bo'sh vaqtlarida rasm chizish va badiiy kitoblarni o'qishni yoqtiradigan maktabdoshim o'quv dargohimizda o'tkaziladigan turli tadbirlarda ham faol qatnashadi. She'r va g'azallar yodlashda unga hech birimiz tenglasha olmaymiz.

Sardorbek xotira va irodani mustahkamlashda sportning o'rni katta ekanini ta'kidlaydi. Va barchamizni sport bilan shug'ullanishga chorlaydi.

Barno MAMAJONOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi
59-umumta'lim maktabining 5-«B» sinf o'quvchisi

XALQARO TURNIRDA

8 ta MEDAL

Qirg'izistonda figurali uchish bo'yicha 5-16 yoshli sportchilar o'rtasida o'tkazilgan xalqaro turnirda mamlakatimiz vakillari bitta oltin, uchta kumush va to'rtta bronza medalini qo'lga kiritishdi.

O'zbekiston, Qozog'iston hamda mezbon sportchilar o'rtasida o'tkazilgan mazkur xalqaro turnirda Anastasiya Sazanovaning chiqishi hakamlar tomonidan yuqori baholandi va iste'dodli sportchimiz eng yuqori ball jamg'arib, oltin medalga sazovor bo'ldi.

Terma jamoamiz hisobiga kumush medallarni Rustan Karimov, Timur Zvyagin va Amirxon Ismatullayev keltirishgan bo'lsa, Muhammadjon Yerkebayev, Shohsanam Tohirova, Darya Svobodina va Mariya Odaynik bronza medalini qo'lga kiritishdi.

Endi yosh sportchilarimiz joriy yilning 25-27-aprel kunlari Rossiyaning Odintsova shahrida o'tkaziladigan xalqaro turnirda ishtirok etishadi.

Shoh MUHAMMAD



TOPISHMOQLAR

Yoz faslida qizitar,
Qishda esa iltar.
Charaqlaydi berib tob,
Ayting, bu nima?..



Oppoq yo'lda iz qoldirar,
Harflardan so'zlar tuzar.
Paydo bo'lar qiyofa ham,
Nomin aytsam sizga...

Sariq, qizil rangi bor,
Bo'y-basti ham purviqor.
Darmondoridir asli,
Bilsangiz, nomi...



Rangim yoqut misoli,
Men yorqinlik timsoli.
Qarindoshim tog'olcha,
Mening nomim, bu...

Qishda qor so'ramaydi,
Yozda ham erimaydi.
Sovitgichdan olgan chog',
Erib ketar...



To'rt oyoqda turadi,
Charchashni hech bilmaydi.
Nomin topding, hartugul,
Stol emas, bu...

Abdulboriy ZIYODOV

JONIVORLAR OLAMI

Aziz o'quvchilar! Sahifamiz orqali turli jonivorlar haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'layotgandirsiz-a? Bugun sizlarga kemiruvchilar turkumiga mansub bo'lgan yumronqoziq haqida ma'lumot bermoqchimiz.

Yumronqoziq

Yumronqoziq Yevroosiyo va Shimoliy Amerika pasttekisliklari, tog'li hududlarda va tundrada hayot kechiradi. Bu jonivorning yigirmadan ortiq turi bo'lib, Qozog'iston va Markaziy Osiyo hududida uning sariq yumronqoziq deb ataladigan turi ko'p uchraydi. Bundan tashqari, uning uzun dumli, kolumbiya, kulrang va eng kichkina yumronqoziq kabi turlari ham bor.

Uning tanasi oqish, qo'ng'ir, kulrang, qum rangda bo'ladi. Yumronqoziq inining bo'yi 3 metrdan 7 metrgacha, eniga esa 15 metrgacha bo'lishi mumkin.

Qishki uyquga ketgan yumronqoziq yetti yoki sakkiz oydan so'ng uyg'onadi. Mart oyining oxiri, aprel oyining boshlaridan u yana o'ziga ozuqa izlay boshlaydi. Yumronqoziq barcha kemiruvchilar kabi turli urug'larni yig'adi, o'simliklarning yer usti va osti qismlari bilan oziqlanadi. Bu jonivorning qoziq tishlari bo'lmaydi. Aksincha, kurak tishlari yirik va o'tkirdir. U ana shu tishlari yordamida qattiq ozuqalarni ham maydalaydi.

Ona yumronqoziq yilda bir marta ikkittadan sakkiztagacha bolalaydi.

ZUBAYDA



Bu qiziq!

Kompyuter sichqonchasi - ni 1968-yili Duglas Engelbart ixtiro qilgan.

«PC» qisqartma belgisi sizga juda yaxshi tanish. U «personal komputer», ya'ni «shaxsiy kompyuter» degan ma'noni anglatadi. Dastlabki shaxsiy kompyuterni esa 1978-yili AQSHda yashovchi Stiven Jobs va Stifen Voznyak yaratishgan.



«Paloroid» rusumli fotoapparat 1947-yili amerikalik Edvin Lend tomonidan ixtiro qilingan.

Kamera ichiga suratni bir daqiqada ishlab chiqaradigan mikrolaboratoriya o'rnatilgan. 1963-yildan boshlab ushbu apparatning rangli suratlarni sanoqli soniyalar ichida tayyorlay oladigan yangi avlodi paydo bo'lgan.

BONU tayyorladi

HUSHYOR BO'LING!

Aziz o'quvchilar! 17-aprel – Yong'in xavfsizligi xodimlari kuni ekanligini bilasizmi? Ushbu kasb egalari siz bolajonlarni yong'inning turli ofatlaridan saqlash yo'lida sidqidildan mehnat qiladilar. Buning uchun, eng avvalo, o'zingiz xavfsizlik qoidalariga rioya qilishingiz zarur.

Misol uchun, bir vaqtning o'zida xonadondagi bir nechta texnika vositalaridan foydalanish salbiy oqibatlariga olib keladi. Deylik, xonadonda muzlatgich, televizor tokka ulangan vaqtda dazmol, kompyuter, mikroto'lqinli pech kabi yana bir qancha maishiy texnika jihozlarini ishlatish xavfsizlik qoidalariga zid hisoblanadi. Shuning uchun, kompyuterdan uzoq vaqt foydalanadigan ba'zi bolajonlarimizga o'z sog'liqlari bilan birgalikda elektr tokini tejjashni ham esdan chiqarmaslikni eslatib o'tmoqchimiz.


Doim hushyor bo'ling, aziz o'quvchilar!
Tohir **NORMATOV**,
14-HYOXQ kichik inspektori, serjant

8

Bo'sh o'firmay, bosh qotir!

Suv ostida suzadi,
Gul rasmini chizadi.

Siz ushbu topishmoqning javobini topish uchun jadvaldagi harflarning ikki marta takrorlanganlarini o'chirib chiqing. Qolgan harflarda topishmoqning javobi hosil bo'ladi.



Tuzuvchi: Fayzulla ABDULLAYEV

Ona tabiat



To'tilarning uchinchi oyoqlari haqida eshitganmisiz? Bu ularning baquvvat tushuqlari bo'lib, daraxt shoxlarida bemalol harakatlanish imkonini beradi.

Piranya – bu qanday jonivor ekan, deya qiziqayotgandirsiz? Tishlari baquvvat va arradek o'tkir bu jonzor baliqlarning bir turidir. U suvda o'zini erkin tutib,



ba'zida keskin harakatlar qiladi. Uning bu harakatlari bir zumda har qanday jonivorga hujum qila olish imkonini beradi.

ZUHRA tayyorladi

14-aprel 2014

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruz ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruz JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin OROIPOV

Manzilibiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMI'da chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 53609
Buyurtma N: J 9648